



ZAMONAVIY MASSIVLARDA XIZMAT KO'RSATISHNI SAMARALI BOSHQARISHNING MUHIM OMILLARI

Ismailov Najmiddin Ilxamovich

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

ORCID: 0009-0009-6482-7684

najmiddin2004@rambler.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy massivlarda xizmat ko'rsatishni samarali boshqarishning muhim omillari yoritilgan. Boshqarishning muhim omillariga izoh berilgan. Hukumat tomonidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va uning amaldagi ijrosiga to'xtalgan. Amaldagi ijro natijasidan kelib chiqib xulosa berilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy massiv, xizmat ko'rsatish, samarali boshqarish, boshqarishning muhim omillari, raqamli texnologiyalar, aqlli shahar, ijtimoiy xizmatlarda innovatsiyalar.

ВАЖНЫЕ ФАКТОРЫ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ УСЛУГАМИ В СОВРЕМЕННЫХ МАССИВАХ

Исмаилов Нажмиддин Илхамович

Самаркандский государственный архитектурно-строительный университет

Аннотация. В данной статье освещены важные факторы эффективного управления услугами в современных массивах. Объясните важные факторы управления. Были затронуты принятые правительством нормативно-правовые документы и их фактическая реализация. Выдается заключение по результатам фактического исполнения.

Ключевые слова: современный массив, предоставление услуг, эффективный менеджмент, важные факторы управления, цифровые технологии, умный город, инновации в социальных услугах.

IMPORTANT FACTORS FOR EFFECTIVE SERVICE MANAGEMENT IN MODERN ARIAS

Ismailov Najmiddin Ilxamovich

Samarkand State University of Architecture and Construction

Abstract. This article highlights the important factors of effective management of services in modern complexes. The important factors of management are explained. The normative legal documents adopted by the government and their current implementation are discussed. A conclusion is drawn based on the results of current implementation.

Keywords: modern massif, service provision, effective management, important management factors, digital technologies, smart city, innovations in social services.

Kirish.

Mamlakatimizda aholi turmush darajasini oshirish maqsadida zamonaviy bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Hududlarda xalqaro darajadagi bino va inshootlar majmualari bilan bir qatorda zamonaviy massivlar qad rostlayapti. Aholi uchun qurilayotgan massivlar soni yildan-yilga ortib, ularda fuqarolarimizga qator qulayliklar yaratib berilmoqda. Aholining uy-joy sharoitini yaxshilash, hududlarda zamonaviy shaharsozlik talablari asosida ko'p qavatli uy-joylar, ijtimoiy soha va infratuzilma obyektlari hamda muhandislik kommunikatsiya tarmoqlari qurilishini jadallashtirish, er resurlaridan oqilona foydalanish va zamonaviy massivlarda urbanizatsiyalash jarayonlarini rivojlantirish maqsadida 2022-yildan boshlab hududlarda "Yangi O'zbekiston" massivlari barpo etila boshlandi.

O'zbekistonda 2030-yilga kelib urbanizatsiya darajasi 60 foizga oshiriladi. Samarqand va Namangan shaharlarini "millionlik shaharlar"ga aylantirish, aholisi 300 mingdan ko'p bo'lgan shahar va tumanlar sonini 28 taga yetkazish maqsad qilingan. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida urbanizatsiya darajasini 2030-yilga kelib 51 foizdan 60 foizga oshirish ko'zda tutilgan.

Ayni shu talablardan kelib chiqib, Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti mutaxassislari tomonidan mamlakatda urbanizatsiya jarayonining rivojlanish tendensiyalari o'rganildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda urbanizatsiya darajasining ortishiga aholi daromadlarining oshishi, oliy ma'lumotli kadrlarning ko'payishi va uy-joylar qurilishi ijobiy ta'sir ko'rsatadi

So'nggi 10-yilda O'zbekistonda shahar va qishloq aholisi soni 20,7 foizga teng sur'atda o'sdi. Bu davrda urbanizatsiya darajasi 50-51 foiz orasida saqlanib, Toshkent shahri inobatga olinmasa, hududlarda urbanizatsiya darajasi 46-47 foiz atrofida bo'ldi.

Mana shu Zamonaviy massivlarda xizmat ko'rsatishni samarali boshqarish va qulay bo'lgan xizmatlarni ko'rsatish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu esa zamonaviy massivlarda xizmat ko'rsatish sohasini boshqarishni tashkiliy-iqtisodiy jihatdan to'g'ri shakllantirish muhimligini anglatadi. Ushbu sohaning rivojlanishi tashkiliy jihatdan optimal va xizmatlar bozori konyunkturasi nisbatan egiluvchan bo'lsa, xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi. Xizmat ko'rsatish sohasining to'g'ri boshqarish milliy iqtisodiyot miqyosida bir qator ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni bartaraf etishga sabab bo'ladi.

Adabiyotlar sharhi.

Zamonaviy massivlarda xizmat ko'rsatishni samarali boshqarishda avvalom bor xizmat ko'rsatish sohasining mohiyati o'rganilgan manbalarni o'rganish muhim deb bilaman. Adabiyotlarda xizmat va xizmat ko'rsatish tushunchalarining turli xil talqindagi mazmuni berilgan. Rossiyalik olim Dalning (1882) talqinida xizmat tushunchasi quyidagicha talqin etilgan: xizmat ko'rsatish, yordam, imtiyoz, ko'mak, ko'nglini topmoq, istagini bajo keltirmoq. Ojegov (1991) tahriri ostida chop etilgan rus tili gramatik lug'atida xizmatlar bu naf, foyda keltiradigan harakat, boshqalarga yordam deb hisoblanadi degan fikr ilgari surilgan. Mazkur tushunchalarda keltirilgan talqinlar mohiyati jihatidan, o'xshash va bir-birini to'ldiruvchi mazmuni ifoda etgan bo'lib, hozirgi raqamli iqtisodiyot elementlari va vositalari singdirilmagan. Xizmat tushunchasining mohiyatini Amerikalik iqtisodchi Kotler (2005) o'zining "Marketing asoslari" nomli kitobida quyidagicha talqin qiladi: "xizmatlar bu ob'ektni sotish jarayonida o'z manfaatini qondirish, muayyan bir naf olish uchun qilingan harakt degan holda, o'zining fikrini davom ettirib, ishlab chiqarishda xizmatlar moddiy ko'rinishdagi tovarlar bilan bog'liq bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin, deb hisoblagan.

Zamonaviy massivlarda aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlarni boshqarish bu bevosita aholi turmush darajasi oshirish bo'lib hisoblanadi. Bu borada hukumat tomonidan juda ko'p chora tadbirlar olib borilmoqda. Ushbu tadbirlar bugungi kunning davlat siyosati darajasiga

ko'tarilgan. Zamonaviy massivlarda xizmatlarni boshqarish asosiy darajadagi vazifalarni o'z ichiga oladi. Mana shu vazifalarni asosida inson qadr qiymati yotadi. Buning amaliy natijasi sifatida hukumat tomonidan qabul qilinayotgan me'yoriy huquqiy xujjatlar misol bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" (2021 yil 11 may PQ-5113) qarori, "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2022-yil 27-yanvar, PQ-104) qarori, "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2022-yil 27-yanvar, PQ-104) qarori, "Innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi (2022-yil 6-iyul, PF-165) Farmoni, "Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida "O'zbekiston Respublikasida shaharlarni kompleks rivojlantirish dasturi" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2023-yil 19 aprel PQ-124) qarori, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi (2023 yil 11 sentyabr PF-158) Farmoni qabul qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, guruhlash, tizimli va qiyosiy tahlil va boshqa usullar qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida" PF-158-son Farmoni qabul qilindi. Ushbu strategiyada Samarqand va Namangan shaharlarini "millionlik shaharlar"ga aylantirish, aholisi 300 mingdan ko'p bo'lgan shahar va tumanlar sonini 28 taga yetkazish hamda barcha aholi punktlarining bosh rejalarini ishlab chiqish maqsadlari qo'yilgan. Yuqori daromadli ish o'rinlari yaratish, malakali kadrlar tayyorlash darajasini oshirish, ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirish va ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash orqali Zamonaviy massivlarda xizmat ko'rsatishni samarali boshqarishni oshirish mumkin. Bu omillar yashash sharoitlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

"Zamonaviy massivlarda xizmat ko'rsatishni samarali boshqarishning muhim omillari" deganda, shahar va qishloq massivlarida turli xizmat ko'rsatish sohaslarini (kommunal xizmatlar, transport, xavfsizlik, savdo, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqalar) yuqori darajada boshqarish uchun asosiy tamoyillar nazarda tutiladi. Bu jarayonning samarali bo'lishi uchun bir qancha muhim omillar e'tiborga olinadi. 1-rasm.



1-rasm. Zamonaviy massivlarda xizmat ko'rsatishni samarali boshqarishning muhim omillari

Infratuzilma rivoji zamonaviy massivlarda xizmat ko'rsatishni samarali boshqarish uchun asosiy shartlardan biri. Infratuzilma deganda yo'llar, binolar, suv, elektr tarmoqlari, telekommunikatsiya, transport va boshqa zaruriy xizmat ko'rsatish tizimlari tushuniladi. U o'z ichiga infratuzilma rivoji bilan bog'liq tushunchalarni oladi.

- Transport infratuzilmasi
- Kommunal xizmatlar infratuzilmasi
- Axborot-kommunikatsiya tizimlari
- Ijtimoiy infratuzilma
- Atrof-muhitni muhofaza qiluvchi infratuzilma
- Favqulodda xizmatlar infratuzilmasi
- Moliyalashtirish va rejalashtirish

Hududiy muvofiqlashtirish xizmat ko'rsatishni samarali boshqarish va rivojlantirishda barcha resurslar va infratuzilmani ma'lum hududda to'g'ri rejalashtirish va taqsimlash jarayoni. Bu nafaqat xizmatlar sifati, balki hududdagi aholining yashash sharoitini yaxshilashda ham muhim omil hisoblanadi. Hududiy muvofiqlashtirish. Hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, har bir hudud o'zining tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlariga ega. Muvofiqlashtirish jarayonida shu jihatlarda e'tiborga olinadi. Masalan, qishloq joylarida qishloq xo'jaligi uchun qulay infratuzilma, shahar joylarida esa transport va axborot tizimlari muhimroq. Hududiy muvofiqlashtirish bu hududlararo tenglik va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun zarur strategiya. Bu orqali har bir massivda yashayotgan aholi o'z hududidan mamnun bo'lishi va xizmatlardan teng foydalana olishi ta'minlanadi.

Innovatsiyalarni joriy qilish xizmat ko'rsatish va boshqaruv tizimlarida zamonaviy texnologiyalar, yangi yondashuvlar va ilg'or g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish jarayonidir. Innovatsiyalarni tatbiq qilish xizmatlar sifati oshirish, resurslardan samarali foydalanish va aholi ehtiyojlarini tez va qulay qondirish imkonini beradi.

- Raqamli texnologiyalarni qo'llash (Raqamli platformalar va avtomatlashtirilgan tizimlar xizmat ko'rsatishni tezlashtiradi va soddalashtiradi)

- "Aqlli shahar" texnologiyalari (Aqlli shahar konsepsiyasi orqali shahar infratuzilmasi va xizmatlari avtomatlashtiriladi. Masalan: Energiya iste'molini kuzatish va tejash uchun aqlli hisoblagichlar, Atrof-muhit monitoringi uchun sensorlar tizimi, yo'llarda tirbandliklarni boshqarish uchun aqlli svetoforlar)

- Ijtimoiy xizmatlarda innovatsiyalar (Sog'liqni saqlashda masofadan maslahatlashuv tizimlari (telemeditsina) va avtomatlashtirilgan diagnostika tizimlari, Ta'limda interaktiv darsliklar, onlayn ta'lim platformalari va b.)

- Yashil innovatsiyalar (Energiya tejovchi texnologiyalar va qayta tiklanadigan energiya manbalari, qayta ishlash texnologiyalarini keng qo'llash orqali chiqindilarni boshqarish samaradorligini oshirish)

- Logistika va transport sohasidagi innovatsiyalar (elektr avtomobillar, velosipedlar joriy qilish orqali ekologik muhitni yaxshilash, jamoat transportini optimallashtirish va yo'nalishlarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi tizimlar)

- Sun'iy intellekt va ma'lumotlar bazasi (Sun'iy intellekt yordamida xizmat ko'rsatish jarayonlarini tahlil qilish, mijozlar ehtiyojlarini oldindan aniqlash va samaradorlikni oshirish)

Xulosa va takliflar.

Aholiga munosib turmush sharoitini yaratish xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va samarali boshqarish tashkil etish orqali erishiladi. Zamonaviy massivlardagi xizmatlar faoliyati aholi turmush darajasi va sifatini yaxshilash hamda ularni boshqarish bo'yicha turli xil echimlarni ishlab chiqishni taqazo etadi.

Aholi turar joy massivlarida keng qulayliklar yaratilgan xizmat faoliyatini yo'lga qo'yish, xizmatlarning aholi farovon turmush tarzini yaxshilashga olib keluvchanligini ko'paytirish,

xizmatlari sifatini oshirishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etish bu faoliyatning rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

Zamonaviy massivlarda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirish uchun hukumat tomonida ishlab chiqilayotgan me'yoriy huquqiy xujjatlarni muhim hisoblanadi. Bu xujjatlarning natijasi aholi turmush farovonligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Zamonaviy massivlarda xizmat ko'rsatishni boshqarish aholi ehtiyojlarini qondirish, yashash sharoitlarini yaxshilash va massiv infratuzilmasini samarali boshqarishga qaratilgan jarayonlar yig'indisi. Xizmat ko'rsatish sifatli va uzluksiz bo'lishi uchun kompleks boshqaruv tizimlari, ilg'or texnologiyalar va puxta rejalashtirish talab etiladi. Bu quyidagi zamonaviy boshqaruv usullarini qo'llashni taqoza etadi:

1. Avtomatlashtirilgan tizimlar;
2. Raqamli platformalar;
3. Xususiy va davlat hamkorligi.

Zamonaviy massivlarda xizmat ko'rsatishni boshqarish aholi farovonligi va turmush sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Innavatsion texnologiyalarni joriy qilish, samarali infratuzilmani yaratish va aholining ehtiyojlarini hisobga olgan holda xizmatlarni yangi bosqichga ko'tarish mumkin. Bunda davlat, xususiy sektor va aholi o'rtasidagi hamkorlikni talab qiladi.

Adabiyotlar/Jumepamyra/References:

Farmon (2021) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-dekabrdagi "Yangi O'zbekiston" massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-32-sonli Farmoni.*

Farmon (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi (2022-yil 6-iyul, PF-165) Farmoni.*

Farmon (2023) *"O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi (2023 yil 11 sentyabr PF-158) Farmoni qabul qilindi.*

Ismailov N.I. (2023) *Zamonaviy massivlar va ularda aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar. Me'morchilik va qurilish muammolari (ilmiy texnik jurnali) 27.04.2023-yil № mahsus soni.*

Ismailov N.I. (2024) *Zamonaviy massivlarda aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar va ularni tavsiflash. "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil" ilmiy elektron jurnali. 11-son 133-138 b.*

Ismailov N.I. (2024) *Zamonaviy massivlarda xizmat ko'rsatish tizimining rivojlanishi. Modern Education and Development elektron jurnali. Vol.4 No.2366-371 b.*

Kotler F. (2005). *Marketing-menedjment. Ekspres-kurs. — 2-ye izd.: Per. s angl.; pod red. S.G. Bojuk. — SPb.: Piter, - S. 301.*

Qaror (2021) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" (2021 yil 11 may PQ-5113) qarori.*

Qaror (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2022-yil 27-yanvar, PQ-104) qarori.*

Qaror (2023) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida "O'zbekiston Respublikasida shaharlarni kompleks rivojlantirish dasturi" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2023-yil 19 aprel PQ-124) qarori.*

Даль В.И. (1882). *Толковый словарь великорусского языка. 2-е изд. М., Т. IV. С.512.*

Ожегов С.И. и др. (1991). *Грамматический словарь русского языка. –М.: Русский язык. 432стр.*